

ONA TILI VA ADABIYOT FANLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLAR UYG'UNLIGI

*Farg'on'a viloyati Bag'dod tumani
4-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
E'zozxon Madolimova Sohibjon qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ona tili fanini o'qitishda foydalilaniladigan yangicha metodlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Ona tili, zamonaviy metodlar, axborot texnologiyalari, innovatsion ta'lif, til, tafakkur.

Ta'lim jarayonining ham boshqa sohalardek o'z nozikliklari va o'ziga xos e'tiborli tomonlari bor. Bu jarayonda har ikki tomon, ham ta'lim beruvchi va ham ta'lim oluvchi faol bo'lishi lozim. Aks holda bir yoqlama ta'lim jarayoni vujudga kelib, ta'larning asl mohiyati yo'qoladi. Boshqacha aytganda ta'lidan kutilayotgan natija kelib chiqmaydi. Bugun ko'pchiligidan shikoyat qiladigan ta'lim mahsuldarligi pastlighining asosiy sabablaridan biri ham ana shunda. Bu muammoni bartaraf qilish uchun ta'lim jarayonining ishtirokchilari uning asl mohiyatini anglab yetishlari lozim bo'ladi. Quyida biz ona tili va adabiyot fanlari misolida ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning milliy va zamonaviy metodlarga asoslangan samarali tizimlari to'g'risida so'z yuritamiz. Ona tili va adabiyot fanlarini, xususan adabiyotni o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan tubdan farq qiladi. Shunga ko'ra, unga fan sifatida qaraydiganlar bir guruhni tashkil etsa, adabiyot o'qitishni san'at turi sifatida baholab, adabiyot o'qituvchisining ishini ham san'atkorona bir ish sifatida baholaydiganlar ham kam emas. Demak, ular adabiyot o'qitish metodikasini ham san'at bilan tenglashtirishadi.

Amaliyotchilik nuqtayi nazaridan qaraydiganlar esa adabiyot o'qitish metodikasini darslarning o'tilishiga bevosita yordam beradigan, har birdarsning samarali bo'lishiga amaliy ko'mak bera oladigan soha deb bilishadi. Ma'lumki, ona tili va adabiyot fanlari qayerda va qaysi tizimda o'qitilishiga qarab, turli samarali metodlar yordamida o'qitiladi.

Ona tili va adabiyot fanlari ta’limning turli bosqichlarida xuddi boshqa fanlar kabi o’sib kelayotgan yosh avlodo‘quvchilarning yoshidan kelib chiqib o‘qitiladi. Maslan boshlang‘ich ta’limda bu jarayon asosan xalq og‘zaki ijodi namunlari va bolalar adabiyoti namunalarini tadbiq qilish orqali amalga oshirilsa, katta sinflarda bu jarayon soddadan murakkablikka qarab boraverdi.

Har ikki holda ham asosiy maqasad o‘quvchilarga o‘qitilayotga materilaning mazunini yetkazib berish va uni amalga joriy qilishlariga yo‘naltirish bo‘ladi. Ya’ni ta’lim jarayonidagi barcha fanlarning asosiy maqsadi va mohiyati o‘quvchilarda muayyan sohalarga oid bilimlarning asoslarini shakllantirish, shularning negizida ularning boy ma’naviy olamini yaratishdan iboratdir. Yuqoridagi vazifalar “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”-da ham bevosita o‘z aksini topgan va bu meyyoriy hujjatlar bizga ta’limning yuqoridagi vazifalarini belgilashda yo‘lboshchi bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, o‘quvchi yoshlarning kelajakda qanday xislat va xarakterli inson bo‘lishlariga bevosita ta’sir etuvchi ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda o‘zgacha yondashuv va ta’lim tarzini olib borish lozim.

Bu jaryonda o‘quvchilar adabiyot darslarida faqat shoirlarning tarjimayi holi yoxud yozgan asarlar sonini, ona tilidan esa qoidalarni mazmunini tushunmay yodlash emas, balki o‘tilayotgan darsning odatdagi darslarimizda o‘zlashtirilmay qolib ketadigan va asosiy jihatni sanalgan, ma’noviy tomonini o‘zlashtirdilar. Ya’ni adabiyotda bu shoirning shaxsiyati uning asarlarida o‘z aksini topgaligi va qanday inson bo‘lganligini ko‘rsatish orqali, o‘quvchilarga undan ibrat olish va hayot yo‘lini tanlashda bu adib yo shoirning yozgan va aytganlariga amal qlish lozimligini yetkazib berishda o‘z aksini topsa, ona tilida bu jarayon adabiyot bilan bo‘g‘liq holda, sal boshqacharoq uslubda tus oladi. Ya’ni qoidalarni bayon qilingach unga mos ravishda keltiriladigan misollar bevosita tarbiyaviy bo‘ladi va uning mazmunini ochib berish orqali o‘quvchi ham qoidanito‘liq tushunadi, ham undan saboq olib, muallifning ijodi bilan bevosita adabiyot orqali oshno bo‘lishga oshiqadi.

Bu jarayon til va adabiyotning o‘zaro bog‘liqligi va birga ta’limda katta natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu jarayonni malga oshirishda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri bu bu ishni amalga oshiradigan tajribali va eng muhimmi xarakteri

bilan boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan o‘qituvchilarni jalb qilish bo‘ladi bu esa, o‘qituvchining shaxsiyati va pedagogik mahoratini oshirishni talab etadi. Bu jaryonni amalga oshirishda o‘qituvchilarni tayyorlashning dastlabgi bosqichlaridan ishni boshlash zarur.

Ya’ni oliy ta’lim tizimida har tomonlama namunali xarakter sohiblari va bilimli mutxasislarini taylorlashni taqozo qiladi. Yan bir jihat agar shu tizim zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari va yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlar asosida olib borilsa natija yanada ham samarali chiqishi tabiiy. Bu fikrni tasdig‘ni ta’limda pedagogik texnologiyalarning o‘rni va vazifasi nimdan iborat degan savolga javob berish orqali bevosita ko‘rishimiz mumkin. Ta’limda pedagogik texnologiyalarning o‘rnini bilish uchun, bu tushunchaning asl mazmun-mohiyatiga nazar solishning o‘zi kifoya. Texnologiya tushunchasi ta’limda ishlab chiqarish sohalariga nisbatan ancha keyin qo‘llana boshlagan. Mutaxassislarga ko‘ra, bola shaxsiga ta’sir ko‘rsatish san’atiga e’tibor qaratilgandan so‘ng “texnologiya” atamasi ta’lim tizimiga kiritila boshlagan.

“Pedagogik texnologiya” atamasini ta’lim berishdagi pedagogik mahorat, san’at deb tushunish mumkin. San’at ichki hissiyotga, texnologiya fanga asoslanadi. Individual mahorat –xususiy metodika texnologiyalar paydo bo‘lganga qadar yetakchilik qilgan. Texnologiya ko‘plab kasb egalarining to‘plagan mahorati yig‘indisi, ya’ni jamoa mahoratidir. Agar pedagogik texnologiya shaxsga ta’sir ko‘rsatish san’ati ma’nosini anglatsa, o‘qituvchi ham ana shunday vazifani bajaradi. Shuning uchun ham o‘qituvchi–darsning ijodkori. U tayyor texnologiyalarning oddiy ijrochisiga aylanmasligi, pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘zining yo‘lini izlashi, faoliyatga kirishishi ham lozim bo‘ladi.

Milliy dasturda ko‘zda tutilganidek, ta’lim jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari asosidagi xabarlar bilan ta’minalash rivojlanib boradi. O‘quv, o‘quvmetodik, ilmiy, innovasion, zamonaviy texnologiyalar mukammallashib o‘quv jarayoniga tatbiq qilina boradi. Umunan olganda ko‘p muammolarni yechimiga xizmat qiladigan bunday talim tizimi nafaqat ona tili va adabiyot darslarida, balki boshqa fanlarda ham qo‘llanilsa samarali natija berishi tabiiy. Bu tizimning zamirida xalqimiz,

ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy salohiyati, olamini boyitish yotadi. Bu jarayonni amalga oshirishda xalqimizning ko‘p asrlik diniy komil inson tarbiyasiga xizmat qiladigan tajribasi va ota bobolarimizning boy merosi hamda qadimda yurtimizda yashab ijod qilgan, insonlarni oqillik, insiniylik, do'stlikka chorlovchi, g'oyaviy jihatdan hech davru zamonda eskirmas, asarlar ijodkorlarining merosidan samarali foydalanish zarur. Bu jarayonda e'tibor berilishi lozim bo'lgan yana bir jihat yotadi. Ya'ni yuqorida tilga olingan mo'tabar manbalarni faqat bir tomonini (o'zimizga mosini) olmay balki to'lig'icha, asl mazmun mohiyati bilan yetkazish katta natijalar beradi.

Ona tili metodologiyasida ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘tilayotgan darslar nafaqat til o‘qitish samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchi-yoshlarga ham aylanadi. uning ajralmas qismi. Turli xil zamonaviy texnik vositalar ishtirokida dars tashkil eta olgan o‘qituvchi qisqa vaqt ichida o‘quvchilarning olgan bilimlari, do'stlariga munosabati, muloqot madaniyati, fikrlash doirasi, so‘z boyligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. nutq salohiyati. Ilg‘or texnologiyalarga asoslangan darslar o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida teng sharoit yaratishga yordam beradi. O‘quvchi darsda o‘zini erkin his qiladi, darsga qiziqishi ortadi, so‘z san`ati va ijodiga qiziqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhammedov R. "Pedagogik texnologiyalar"
2. Ona tili darsligi 5-sinf.
3. "Til adabiyot ta'limi" jurnali.
4. Shaykhislamov, N. (2021). *THE DIRECTION OF MODERN LINGUISTICS THE CONCEPT OF COGNITIVE LINGUISTICS*. Scientific progress.
5. www.ziyonet.uz.